

PROF-EMIS.EDU.UZ PLATFORMASIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA SEMINAR AMALIYOTI: ZOMIN TUMAN 1-SON TEXNIKUMI MISOLIDA

Zomin tuman 1-son texnikumi

Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

O'rishboyev Temur G'ulomjon o'g'li

Kirish Raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish, o'qituvchilarning shaxsiy malakasini oshirish, pedagogik faoliyatini monitoring qilish va yangiliklardan muntazam xabardor bo'lish talab qilinmoqda. Shu kontekstda prof-emis.edu.uz platformasi o'qituvchilarni elektron tarzda boshqarish va ularning kasbiy faoliyatini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Zomin tuman 1-son texnikumida o'tkazilgan seminar ushbu platformaning imkoniyatlari, undan foydalanish tartibi va amaliy qo'llanilishi bo'yicha tashkil etildi. Seminar o'quv-uslubiy va amaliy maqsadlarni birlashtirib, o'qituvchilarning platformadan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Zomin tuman 1-son texnikumida o'tkazilgan o'quv seminar

№ _____

“16” Yanvar 2026 yil

Zomin tumani

Raislik qiluvchi: U.Raximqulov – Zomin tuman 1-son texnikumi O'IBDO'.

Maruza qiluvchi: Texnikum Ishlab chiqarish ta'lim ustasi Temur O'rishboyev.

Qatnashganlar: Uslubchi, texnikum pedagogik hodimlari

Kun tartibida:

Zomin tuman 1-son texnikumi o'qituvchilarini prof-emis.edu.uz platformasi imkoniyatlari, undan foydalanish tartibi hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llash usullari bilan tanishtirish bo'yicha seminar mashg'uloti.

(U.Raximqulov, N.Ibodullayeva, T.O'rishboyev va boshqalar)

E SH I T I L D I :

Yig'ilishda texnikum O'IBDO' direktori U.Raximqulov so'zga chiqib, bugungi kunda ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan olib borilayotganini, o'qituvchilardan zamonaviy axborot tizimlaridan unumli foydalanish talab etilayotganini ta'kidladi.

Shundan so'ng Texnikum Ishlab chiqarish ta'lim ustasi va axborot texnologiyalari bo'yicha mas'ul xodim T.O'rishboyev tomonidan **prof-emis.edu.uz** platformasining maqsadi va vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Jumladan:

- platforma o'qituvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini yuritish;
- malaka oshirish, attestatsiya va pedagogik faoliyat ko'rsatkichlarini elektron tarzda shakllantirish;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini monitoring qilish;
- ta'lim tizimidagi yangiliklar va hujjatlar bilan tanishib borish imkoniyatlarini yaratishi tushuntirib o'tildi.

Seminar davomida platformaga kirish, ro'yxatdan o'tish, shaxsiy kabinetdan foydalanish, ma'lumotlarni to'ldirish va yangilab borish tartibi amaliy tarzda ko'rsatib berildi.

Shuningdek, o'qituvchilarning savollariga javoblar berildi va amaliy mashqlar bajarildi.

Qaror qilindi:

1. Zomin tuman 1-son texnikumi o'qituvchilari prof-emis.edu.uz platformasidan muntazam foydalanib borishlari belgilab qo'yilsin.
2. Har bir o'qituvchi o'z shaxsiy ma'lumotlarini to'liq va to'g'ri kiritishi hamda doimiy ravishda yangilab borishi ta'minlansin.
3. Texnikum Ishlab chiqarish ta'lim ustasi va Axborot texnologiyalari bo'yicha mas'ul xodimi T.O'rishboyev tomonidan o'qituvchilarga zarur amaliy yordam ko'rsatib borilsin.
4. Platformadan foydalanish jarayoni ma'muriyat tomonidan nazoratga olinsin.

U.Raximqulov

Bayonlashtirdi:

N.Ibodullayeva

Xulosa Zomin tuman 1-son texnikumida o'tkazilgan seminar amaliyoti shuni ko'rsatdiki, prof-emis.edu.uz platformasi o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini raqamlashtirish, shaxsiy malakasini oshirish va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Seminar davomida o'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirdilar, balki amaliy mashg'ulotlar orqali platformadan foydalangan holda real ish jarayonida ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ldilar.

